

M.RAVEL ASARLARIDAGI STILISTIK XUSUSIYATLAR

To‘raxonova Dilshoda Baxromjon qizi
2-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy rahbar: L. B. Kabduraxmanova

Annotatsiya:

Maqolada M. Ravel asarlarining uslubiy tahlili yozilgan. Poema, kvartet, ovoz va orkestr uchun yozilgan asari, fortepiano uchun yozgan asarlarining, shakli, o‘lchovi, xarakteri keng bayon etilgan. Shuningdek, ushbu asarlar XX asrning birinchi 10 yilligida yozilgan bo‘lib, M.Ravel ijod davrining eng cho‘qqiga chiqqan davri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: uslub, ijod, turkum, tovush, melodiya, repriza, mavzu, faktura, orkestrrovka, Sharq musiqasi.

Introduction

Moris Ravel asarlarida detallarning, shaklning aniqligi, hisob-kitobni oldindan aniq rejalashtirgani ko‘rinib turardi. Uning: "Avval men gorizental va vertikal chiziqlarni belgilab olaman, keyin A. Ransom tili bilan aytganda, chizishni boshlayman", - degan so‘zlari bor edi. 1902-1903-yillarda yozilgan F-dur kvartetida avval shakl va xarakter belgailangan, klassik intizomga rioya qilingan, so‘ngra ilhom kelib yozilgan. Bu yondashuv bilan M.Ravel keyingi ijodida ham o‘zini yanada kengroq namoyon qildi. Asarda G.Fore musiqiy jozibasi ko‘rinib turadi, garchi o‘quvchilariga o‘z stilini majburlab singdirmagan bo‘lsa ham. Ularning qalban yaqin ustoz-shogird bo‘lganliklarini shu yerda ham ko‘rish mumkin. Emil Vyuyyermoz bu asarni 1 ta smichok bilan ijro etsa bo‘ladigan holda zich va yengil deya ta‘rif bergan. Yana zarbli uslublarga ham ahamiyat qaratib, pizzicatolardan foydalangan. Kvartet 4 qismli bo‘lib 1-qism sonata shaklidagi Allegro (Allegro moderato), yorug‘ va hotirjam, juda muloyimlik bilan ijro etish kerak. Ravon ritmik harakatli, dinamik avj nuqtalariga ega. Mavzu reprizada ham ekspozitsiyadagi bilan bir xil, faqat boshqacha garmoniya bilan. Repriza ekspozitsiyaga nisbatan biroz qisqaroq.

2-qism - scherzo. Poliritmiya. O‘lchovi 6/4 va 3/4 ga o‘zgaradi. Keng, ohangdor ijro etish kerak. 1-skripkada oktavalari, 2-skripkada keng akkordlar qo‘llanilgan. 3-qism - sekin, hotirjam ruhdagi, his-tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan lirik qism. Bu qism melodiya 1-qism melodiyasiga o‘xshaydi. Tovushning yumshoqligi bilan ajralib turgan, asarning haqiqiy lirik cho‘qqisi. 4-qism - final. Bask musiqasi ritmiga xos 5/8 o‘lchovda jadal harakat bilan boshlanadi. Keyin melodiya qo‘shiqqa o‘xshash xalqona xarakterga aylanadi. Lekin musiqa ritmi o‘zgarmaydi, melodiya qo‘shiqsimon qarama-qarshilikka o‘zgargani faqat tashqi ko‘rinishidan shunday eshtiladi. Kvartet premyerasi ishtirokchisi Jozef Kalve ritmning bitta harakatda ketishiga Ravelning talabi kuchli bo‘lganini aytadi.

"Shexerazada" asari ovoz va orkestr uchun yozilgan 3 poemadan iborat asar. Bu asarni Ravel kvartet bilan bir vaqtda yozgan. Ravel o‘z avtobiografiyasida ijodidagi orientalizm K.Debyussi

va rus an'anali ta'siri bo'lganligini aytgan. Aynan "Shexerazada" asari 1903-yilda yozilgan bo'lib, Debyussi uslubiga yaqin. Bu asar M.Ravelning Sharqqa bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi. Ravel ushbu asarni yozish davrida Sharq mavzulari muhitida yashab, she'rni musiqaga solish u uchun juda ham ilhomli ish edi. So'z ichidagi chuqur ma'nolarni izlardi. Qisqa qilib aytganda, nutqiy intonatsiyani musiqiy melodiya aylantirishga jiddiy yondashgan va "Shexerazada" asarida bu yuqori darajada ko'ringan. Asarda skripka ohanglari, orkestrrovka uslubi Rimskiy-Korsakov, Balakirev va Borodinga xos intonatsiyalarni ko'rsatadi. Ravelning garmonik tuzilishlar, unga xos bo'lgan katta septakkordlarni ko'rish mumkin. Bular hammasi birlashib kompozitorning individual uslubi namoyon bo'lgan. Bu asar Ravelni ilhomlantirgan adabiy va Sharq musiqiy obrazi. Sharq - bu Ravel uchun hayoliy olam, ertak olami! Xullas, bu asarning vokal uslubida, orkestrrovkasida, musiqiy-she'riy karakterlarida fransuz kompozitorining ijodi seziladi.

Uch poemaning eng katta birinchisi Damashq, Eron, Hindiston va Xitoylardagi hayoliy sayohat tasvirlaridan namoyon bo'lgan. Ekzotik boshlanish ba'zan Xitoy ladlari orqali, ba'zan Sharq diatonikasi orqali namoyon bo'ladi. Umuman bu asar "sarguzashtlarga chorlovchi ovoz" bilan su'gorilgan, XX asr boshlarida fransuz san'atiga xos bo'lgan yorqin namuna.

Poemaning 2-chisi - "Maftunkor fleyta" ifoda va uslub jihatdan tushunarsiz hamda Ravelning mashhur sahifalariga aylangan. "Maftunkor fleyta" - Sharq ladida yozilgan nozik koloritli fleyta navosi. Bu iztirobli xohish, "dolce far niente" ya'ni befarqlik bilan, halovat bilan ijro qilish. Bu kichik sahna va bu qismda ham instrumental jo'rlik muhim. Bu asar uslub jihatdan Rimskiy-Korsakovning "Plenivshis rozoy, solovey" va Musorgskiyning "Yevreyskaya pesnya" asarlari bilan yaqin. Bu qism haqiqiy ilhom bilan, melodik jihatdan uyg'unlashgan va Ravelning konsert repertuaridan joy olgan.

Uchinchi poema - "Befarq". Bu qism ham o'ziga yarasha lirik, hotirjam, nafosatli, orkestrrovkaning rang-barangligi bilan ajraladi hamda Ravelga xos bo'lgan impressionistik uslubni ko'rsatadi. 1904-yil 17-iyunda "Sheherazada" ilk bor "Milliy jamiyat" konsertida Russelning L.Tolstoy asari asosida yozilgan "Yakshanba" asari bilan ijro etilgan. "Sheherazada" fransuz musiqasining yorqin namunalaridan biri!

Moris Ravel ijodining 1905-1908-yillari ham haqiqiy ijod yili bo'ldi. U simfonik musiqada, musiqa teatri sohasida, shuningdek, kamer-vokal va fortepiano musiqasida ham yangi yo'nalish bo'yicha izlanishni davom ettirdi. Albatta bu paytda yaratgan asarlarining har birida mukammallikka intilgani, sinchkovligi, musiqa ifodasining aniqligi sezilib, musiqa tarixida o'z o'rnini egallagan. Bu davrda u Davlat xizmatida ishlash umididan voz kechib, fikru-hayolini ijodga qaratdi. Shaxsiy hayoti ham shov-shuvlarsiz bo'ldi. U yozgan asarlarining sonini oshirishga oshiqmasdan sifati ustida ishlardi. Har bir mayday detallarini sinchiklab puxta ishlardi, ko'ngli to'lmasa boshqattan boshlardi. O'z oldiga murakkab vazifalar qo'yardi, go'yo atayin o'ziga qiyinchilik tug'dirib, undan zavq oladigandek. Nihoyat qilgan ishidan mamnun bo'lib, yuksak davrga kirdi, garchi asar ijrosidan keyin dushmanona tanqidlarga uchragan bo'lsa ham. Ammo keyinchalik borgan sari do'stlari va muxlislari safi kengayib, hatto matbuotda ham uni qo'llab-quvvatlaganlar ham ortib bordi. "Sonatina", "Akslar", "Suv o'yini" va "Shexerazada" asarlaridan keyin Ravel haqida boshqacha hurmat-e'tibor bilan gapira boshlashdi, garchi avval shunchaki yosh bir istiqbolli musiqachi sifatida qarashgan bo'lsa ham.

Ustozi Gabriel Fore darslarga kechikib kelgan paytlarda shunday derdi: "Bugun biroz kech qoldim. Xo'sh! Qo'ying, Ravel bizga yana o'zining "Suv o'yini"ni ijro etib bersin". Ko'p o'tmay asar hamma joyga tanila boshlab, hamma uni gapira boshladi.

Kompozitorning hissiy qamrovini kengaytirgan, 1905-yilda yozilgan "Sonatina" va "Aks-sadolar" asarlari qalbning tub-tubiga yetib boruvchi nozik lirik asarlar. Asar garmoniyasida impressionistik xususiyatlar, nonakkordlar, dissonanslarni uchratamiz. Kompozitor sonata allegrosini ekspozitsiyadan reprizagacha shakl qoidalariga amal qilib yozadi, final qismiga esa biroz o'zgarish kiritadi. Bu mutlaqo Ravelona ruhda yaratilgan va yorqin qo'shiqbop asar. "Sonatina"ning 1-qismi shakl jihatdan chegaralangan ixcham, mavzulari bir-biriga yaqin. Ammo mavzular orasida kontrastlik bor. 2-mavzu faktura jihatidan va sokinligi bilan farq qiladi. 1-qismni A.Alshvang Norveg kompozitori E.Grig uslubiga o'xshatgan. Grig ham so'nggi ijod davrida impressionizmga yaqinlashgan edi. Final qismi shiddatli shamoldek o'n oltitalik notalar harakati bilan ajraladi. Tez, bir xil tempdagi passajlari, arpedjiolari bilan o'ziga jalb qiladi. Ravelning taassurotlari sabab yangi obrazlar paydo bo'ladi. "Sonatina"ning final qismini ham dengizni tasavvur qilgan holda yozgan. Dengizdagi keng shamollar va ufqning obrazini finalda aks ettirgan. "Sonatina"da his-tuyg'ularni aniq ifoda etilishi, qalb iztirobi to'siqsiz namoyon bo'lishi bilan Ravelning eng yaxshi asarlari ro'yxatiga kiradi. Korto ushbu asarni ijro etardi ekan undagi hech narsani o'zgartirmaslik kerakligini aytgan. Chunki Ravel shundog'am bu asarni aniq va puxta qilib, hech qanday sun'iyliksiz, tabiiylik bilan yozgan. Bu kabi xususiyatlar "Tunggi Gaspar" asarida ham ko'rinib turadi.

"Tunggi Gaspar" asarida endi tabiat, tashqi olam emas, ichki hissiyotlar ifodalangan. Musiqada g'amgin ohang sezilib, fojiviy ruh aks etadi. Balki kompozitorning otasining kasalligi sabab shunday ruhdagi asarni yaratgandir. Chunki asar otasining kasalligi bilan bir paytda yaratilgan va P'er Jozef Ravel 1908-yil 30-oktyabrda vafot etadi. Lekin asar har qanday tinglovchini dramatik keskinligi bilan rom etadi. Bu asar Ravelning yangi qiyofasini aks ettirib, virtuoqlik jihatdan yuqori darajaga chiqadi. Keyinchalik, bunday uslub "Vals" va chap qo'l uchun konsert partituralarida namoyon bo'ladi.

Moris Ravel obrazli-tasviriy izlanishini ilk bor "Suv o'yini" asarida ko'rsatgan. "Aks-sadolar" turkumida esa bu izlanishi yuqori cho'qqiga chiqqan edi.

Butunlay boshqa dunyoga olib boruvchi keyingi fortepiano turkumi - "Tunggi Gaspar". Bu asar psixologik tomondan kuchli ifoda etilgan. "Suv o'yini", "Sonatina" va "Aks-sadolar" asarlari Ravelning muhim yutuqlari bo'lgan. Bu nafaqat Ravel va fransuz musiqasi uchun, balki, butun Yevropa uchun muhim bo'lgan

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Martinov I.Moris Ravel.- Moskva, "Muzika", 1979.
2. Smirnov V. Moris Ravel i yego tvortchestvo. -Leningrad "Muzika", 1981.